

II. CHO‘L CHORVACHILIGIDA OZIQLANTIRISH VA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

UO‘K: 636.32/38.081:084.5.

PROBIOTIK BILAN OZIQLANTIRILGAN NASLLI ERKAK QO‘ZILARNING EKSTERYER KO‘RSATKICHLARI

A.X.Xatamov–q.x.f.d (PhD), katta ilmiy xodim,

J.B.Qozoqov–tayanch doktorant,

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada qorako‘l qo‘zilarning turli yosh davrlarida o‘shish va rivojlanish xususiyatlari yani eksteryeri ko‘rsatkichlari va unga probiotiklarning ta‘sirini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. qorako‘l qo‘yi, oziqlantirish, probiotik, ozuqaviy qo‘shimcha, eksreryer, o‘shish, rivojlanish.

Summary. The article presents the results of studying the characteristics of growth and development, i.e. exterior indicators, and the effect of probiotics on Karakul lambs at different ages.

Key words: karakul sheep, feeding, probiotic, food supplement, exterior, growth, development.

Kirish. Qorako‘lchilik chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda respublikada 6 mln ga yaqin qorako‘l zoti qo‘ylar urchitilmoqda. Bugungi kunda chorva mollaridan yuqori mahsuldorlik olishni istagan xar bir chorvador ularni oziqlantirishni ilmiy asoslarda tashkil etmasdan o‘z maqsadiga erisha olmasligini yaxshi biladi. Cho‘l hududlarda yaylovlarning hosildorligi ko‘p jihatdan yog‘ingarchilik miqdoriga va yaylovlardan oqilona foydalanishga bog‘liq. Qorako‘l qo‘ylarining mahsuldorligini oshirishning asosiy yechimlardan biri bu ozuqaviy qo‘shimchalardan foydalanish hisoblanadi. Hozirgi kunda zomonaviy ozuqaviy qo‘shimchalardan yani probiotiklardan foydalanish ishlari chorvachilikning barcha sohalari kabi qorako‘lchilikda ham foydalanilmoqda.

Tadqiqotlarda “Aktivil-3” probiotiginig sovliqlar sutining kimyoviy tarkibiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganligi aniqlandi. Bunda yog‘, oqsil, quruq modda, zichlik bo‘yicha tajriba guruhi nazorat guruhidan mos ravishda 0,13%; 0,3%; 0,98% va 5,3% ga ustunlik qilishi kuzatilgan. Bundan tashqari qo‘ylar mahsuldorligiga probiotiklar ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi qayd etilgan [7].

Tadqiqotlarda Baktovit (j-2) va baktovit probiyotigi qo‘shilgan ozuqalarda fermentlanish jarayoni nazorat guruhiga nisbatan ancha tez boshlanishi fermentatsiya davrida aminokislotalar miqdori 28% gacha chorva mollari parrandalar quyonlar mahsuldorligi turlarga qarab 12-30% gacha oshishi ularning chiqindilarda to‘yimli moddalar qoldiqlarinig kamayishi 4,5-5,5% ga kamayishi aniqlangan [1].

Kavsh qaytaruvchi hayvonlarning oshqozonida ozuqaning hazm bo‘lishida bakteriyalar muhim rol o‘ynaydi ular selluloza (dag‘al asosiy qismi), kraxmal monosaxaridlar, kislotalar (sut kislotasi va qahrabo, chumoli kislotalar) lipidlarni fermentativ parchalanishiga va azotli birikmalar konversiyasida ishtirok etadi [2].

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlash ayniqsa hayvonot olamidigan oзуqalar bilan taminlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Qo'ylardan edilboy zoti go'sht yetishtirishda oldingi o'rinlarda turadi. Edilboy zotli sovliqlardan 100 bosh ajratib olindi va urug'langan sovliqlardan 70 ta yakka va 20 bosh egiz qo'zi olindi. Qo'zilarining o'sishi orqali sovliqlar sutdorligiga baho berildi natijada 21 kunlikdagi tirik vazni sutdorligi yuqori bo'lgan sovliqlarning qo'zilar 2,27 kg ga ustunlik qilgan. 4 va 7 oylikdagi qo'chqorchalarning go'sht mahsuldorligi 4 oylikda 2,29-5,42% va 7 oylikda 2,33-2,88% nazorat guruhiga nisbatan ustunlik kuzatilgan [3].

Tana o'lchamlarini olish hayvon tashqi ko'rinishini o'rganishning aniq usuli hisoblanadi. Tajriba uchun volgagrad zotli qo'chqorlaridan 20 boshdan 2 ta guruh shakllantirilgan va tajriba guruhiga eksudirlangan yem berilib ularning tana o'lchamlaridagi o'zgarishlar o'rganilgan. Tajriba boshida guruhlar o'rtasida unchalik farq kuzatilmagan bo'lsada 8 oylik davrga kelib farqlanishlar kuzatilgan. Tajriba guruhida yag'rin balandligi 2,26 sm, gavdaning qiya uzunligi 2,33 sm ko'krak kengligi 3,85 sm yuqori bo'lishi kuzatilgan [5].

Tadqiqotlarda olingan ma'lumotlarga asosan probiotiklar va boshqa innovatsion usulda tayyorlangan oзуqalar hayvon organizmida oshqozon ichaklarda ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilash bilan bir qatorda ularni har xil kassaliklardan himoya qilishi, qorako'l qo'ylarining o'sish va rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatishi, sovliqlarning sut miqdorining oshishi va kimyoviy tarkibining sifati yaxshilanishi aniqlangan [7, 8, 9, 10].

Tadqiqotning maqsadi. Naslli erkak qo'zilarining eksterer ko'rsatkichlariga probiotiklar bilan oziqlantirishning ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar Samarqand viloyati Nurobod tumani "Saxoba ota" MCHJ da amalga oshirildi. Tajriba uchun 20 bosh va nazorat uchun 20 bosh erkak qo'zilar tanlab olindi.

Tajriba va nazorat guruhi hayvonlari bir xil sharoitda saqlandi va oziqlantirildi va tajriba guruhiga "Aktivil-3" probiotigi qo'llanmasiga asosan, 1 kunda 300 gr/t miqdorda oзуqasiga qo'shib berildi. Dastlabki 1-oyida har kuni ikkinchi oydan boshlab bir oyda 10 kundan berib borildi.

"Aktivil-3" probiotigi oзуqa moddalarning ovqat hazm qilish kanali orqali o'tishini sekinlashtirishga yordam beradi va shu bilan oзуqa moddalarning yaxshi so'rilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari yordamchi moddalar hazm qilishni yaxshilaydi va oзуqa konversiyasini oshiradi.

Eksteryer o'lchamlari (yag'rin balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko'krak chuqurligi, kengligi va aylanasi, poycha aylanasi) o'lchov tayog'i va lentasi, tana tuzilish indeksleri zootexniyada qabul qilingan formulalar orqali aniqlandi (N.A.Kravchenko, 1963) [4].

Tajribadan olingan ma'lumotlar variatsion statistika usulida qayta ishlandi. (Н.А.Плохинский, 1969). Bunda belgining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi (X), uning xatosi (Sx), o'zgaruvchanlik koeffitsienti va guruhlar o'rtasidagi farqning ishonchliligi (P) aniqlandi [6].

Tadqiqot natijalari. Qorako'lchilikda oziqaviy qo'shimchalardan foydalanish natijasida naslli erkak qo'zilarida eksteryer ko'rsatkichlaridagi o'zgaruvchanliklar 1-jadval ma'lumotlarida keltirilgan.

Eksterer o'lchamlari qishloq xo'jalik xayvonlarining tirik vazni bilan bog'liq bo'lgan muhim biologik ko'rsatkichlar qatoriga kiradi. Eksteryer ko'rsatkichlarining rivojlanishiga qo'zilarini oziqlantirishning ahamiyati muhim hisoblanadi. Bizning tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlar asosida tana o'lchamlarining tahlili quydagicha bo'ldi.

Yangi tug'ilgan qo'zilarida tana o'lchamlari mos ravishda tajriba guruhi nazorat guruhidan 0,2 sm 0,5% ga kam, 0,1 sm 0,3% ga ustun, 0,2 sm 1,4% ga kam, 0,2 sm 2% ga ustun, 0,6 sm 0,5% ga ustun, 0,1 sm 1,7% ustunlik qilib bu ko'rsatkichlar 21 kunlikka kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 4,1 sm 10,02% ga, 2,7 sm 7,8% ga, 1 sm 5,6% ga, 0,7 sm 6,3% ga,

3,2 sm 7,1% ga, 0,4 sm 6,5% ga yuqori bo'lgan. 4,5 oylikda ham 6,1 sm 11,2% ga, 3,9 sm 6,1% ga, 1,8 sm 7,8% ga, 0,9 sm 7,2% ga, 3,7 sm 5,4% ga, 0,5 sm 7,3% ga, 6 oylik yoshiga kelib 4,5 sm 7,9% ga, 3,5 sm 5,8% ga, 1,5 sm 6% ga, 0,8 sm 5,8% ga, 3,7 sm 5,3% ga, 0,4 sm 5,4% ga barcha ko'rsatkichlarda ustunlik kuzatildi. Ushbu ma'lumotlar asosida "Aktivil-3" probiotigi qo'ylar ovqat xazm qilish organlarida ozuqalarning hazmlanish darajasini oshirishi hisobiga uni o'sish rivojlanish yaxshi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Naslli erkak qo'zilarining eksteryer ko'rsatkichlari, sm n=20

Guruhlar	Yoshi	Tajriba		Nazorat	
		X±Sx	Cv %	X±Sx	Cv %
Yag'rin balandligi	tug'ilganda	36,9±0,13 ^{x)}	1,5	37,1±0,14	1,58
	21 kunlik	45,0±0,37 ^x	3,84	40,9±0,35	3,8
	4,5 oylik	60,1±0,43 ^x	3,17	54,0±0,45	3,7
	6 oylik	61,2±0,4 ^x	2,9	56,7±0,43	3,88
Gavdaning qiya uzunligi	tug'ilganda	29,5±0,3 ^{x)}	4,8	29,4±0,17	2,62
	21 kunlik	37,1±0,32 ^x	3,9	34,4±0,31	4,0
	4,5 oylik	60,1 ±0,14 ^x	2,99	56,2±0,47	3,7
	6 oylik	63,5±0,44 ^x	3,13	60,0±0,53	3,95
Ko'krak chuqurligi	tug'ilganda	14,1±0,12 ^x	3,97	14,3±0,13	4,12
	21 kunlik	18,6±0,25 ^x	6,12	17,6±0,26	6,4
	4,5 oylik	24,7±0,35 ^x	6,27	22,9±0,35	6,76
	6 oylik	26,4±0,37 ^x	6,36	24,9±0,35	6,18
Ko'krak kengligi	tug'ilganda	10,2±0,14 ^{x)}	6,07	10,0±0,17	7,8
	21 kunlik	11,8±0,15 ^x	5,76	11,1±0,13	5,49
	4,5 oylik	13,4±0,19 ^x	6,41	12,5±0,18	6,3
	6 oylik	14,5±0,18 ^{x)}	5,65	13,7±0,19	6,2
Ko'krak aylanasi	tug'ilganda	40±0,15 ^{x)}	1,65	5,7±0,1 x)	8,57
	21 kunlik	39,8±0,14	1,5	5,6±0,1	8,2
	4,5 oylik	47,8±0,43 ^x	4,0	44,6±0,31	3,1
	6 oylik	6,5±0,07 ^x	5,23	6,1±0,07	5,49
Poycha aylanasi	tug'ilganda	71±0,42 ^{x)}	2,66	67,3±0,49	3,3
	21 kunlik	7,3±0,07 ^x	4,65	6,8±0,07	5,1
	4,5 oylik	72,5±0,48 ^x	2,95	68,8±0,47	3,05
	6 oylik	7,8±0,09 ^x	5,12	7,4±0,08	4,72

Izoh: x P>0,999, x) P>0,95.

Xulosa qilib aytganda, qo'zilarining o'sishi va rivojlanishiga "Aktivil-3" probiotigini qo'shib berilishi ijobiy ta'sir ko'rsatib, oshqazon suyuqligi va ichaklarda foydali bakteriyalar salmog'ini oshirish va hazmlanish jarayonini yaxshilashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Alizade Alibala, Yo'ldashev D Baktavit J va Baktovit probiotigi. Veternariya meditsinasi .Toshkent 2021-y. №8. 29-32 bet.

2. Bakirov B., Xayitov B.N. Mahsuldor sigirlarda katta qorin atsidiozining ertachi tashxisi, guruhli davolash va oldini olish choralari boyicha tavsiyalar. Toshkent-2022 y. 34 bet.

3. Бабочкин П.С, Забелина М.В Особенности формирования убойных качеств молодняка овец эдильбаевской породы в зависимости от молочности их матерей. Аграрный научный журнал. №6 43-45 ст

4. Кравченко Н.А. Разведение сельскохозяйственных животных. Изд-во сельхоз литературы, журналов и плакатов, 1963. 310 с.

5. Манджиева М.В (2018) Экко-пд-см и экко-тж-см на мясную и шерстную продуктивность баранчиков. Волгоград 2018 г Дисс. 122 ст.
6. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. – Москва, 1969 г, 256 с.
7. Xatamov, A., & Qozoqov, J. (2023). Qorako'l qo'ylari sut mahsuldorligi va sutining kimyoviy tarkibiga probiotiklarning ta'siri. Chorvachilik Va Naslchilik Ishi Jurnal. 2023 Y. №03. 26-28 B.
8. Xatamov A., Normuminova M., Qozoqov J. B. THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN FEEDING KARAKUL SHEEP //Conferencea. – 2022. – C. 127-131.
9. Xatamov A., Normuminova M. The effect of "barakat" fertilizer on the growth indicators of lambs and the milk production of children. ISSN: 2776-0979, In Volume 3, Issue 11 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Nov., 2022. PP. 1550-1553 <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NRKCT>
10. Xatamov A., Qozoqov J. B. The Effect Of Probiotics On Dairy Products //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – T. 10. – C. 130-132.

UO'K: 636.32/.38.084.1:591.111.05.

NASLLI QORAKO'L QO'ZILARI QONINING BIOKIMYOVIY TARKIBIGA PROBIOTIKLARNING TA'SIRI

A.X.Xatamov-q.x.f.d (PhD), katta ilmiy xodim,

J.B.Qozoqov-tayanch daktarant

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada naslli erkak qorako'l qo'zilarini oziqlantirishda probiotiklardan foydalanishning ahamiyati o'rni hamda qonining biokimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Kalit sozlar: qorako'l qo'zi, probiotik, qon, eritrosit, leykosit, gemoglobin, ozuqa.

Summary. This article presents the rule of the use probiotics in feeding of breeding male Cormarant lambs, as well as the results of the study of biochemical indicators of blood.

Key words: karakul lamb, probiotic, blood, erythrocyte, leukocyte, hemoglobin, feed.

Kirish. Qorako'lchilik chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib ozuqa bazasini asosiy qismi dag'al ozuqalardan iborat bo'ladi, ushbu ozuqalarning energetik qiymati past bo'lganligi uchun oziqlantirish ratsionlarning umumiy to'yimliliigi va biologik qiymatini oshirish maqsadida ozuqaviy qo'shimchalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Dag'al ozuqalarning hazmlanishida katta qorin suyuqligi tarkibidagi tirik mavjudotlar ya'ni bakteriyalar muhim ro'l o'ynaydi. Ozuqalarning yaxshi hazmlanishi esa organizmning yaxshi o'sishi va rivojlanishi, mahsuldorlikning yuqori bo'lishi uchun asosiy manba hisoblanadi.

Olimlarning yozishicha eritrositlar organizm uchun ahamiyati katta hujayralardir chunki ular tarkibdagi gemoglobini kislorodni hamda aminokislotalarni biriktirib organizmning barcha organ va to'qimalariga tashib berish hamda karbonat angidridni va chiqindi moddalarni ayiruv organlariga yetkazib berish vazifasini bajaradi. Leykositlar organizmda asosiy himoya vazifasini bajaradi shulardan fagositoz-yod moddalarni yemirish, antitelalarni ishlab chiqarish va oqsil tabiatli toksinlarni chiqarib tashlash vazifalarini bajaradi [4].

Qon tarkibida glyukozaning normada bo'lishi hayvon organizmida moddalar almashinuvi me'yorda bo'lishini taminlaydi. Oqsillar miqdori hayvon organizmida ularning yoshiga, jinsiga, yilning fasliga qarab o'zgarib turadi. Oqsillar organizmda asosiy qurilish funksiyasini bajaradi [6].